

“Yangi O‘zbekiston” universitetida 2026-yil uchun doktorantura, tayanch doktorantura, stajyor-tadqiqotchi va mustaqil izlanuvchilikka qabul qilish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 22-maydagi 304-son qaroriga asosan “Yangi O‘zbekiston” universitetiga (keyingi o‘rinlarda – Universitet) 2026-yilda doktorantura, tayanch doktorantura, stajyor-tadqiqotchilik va mustaqil izlanuvchilikka qabul qilish tartibini belgilaydi.

2. Tayanch doktoranturaga kirish imtihoni Universitetning oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga izlanuvchilarni qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha qabul komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Qabul komissiyasi) hamda **doktorantura, stajyor-tadqiqotchi va mustaqil izlanuvchilikka** suhbat jarayonlari Universitet Ilmiy texnik kengashi (keyingi o‘rinlarda – Kengash) tomonidan tashkil etiladi. Bunda suhbat Kengash huzurida tashkil etiladigan **suhbat komissiyasi** tomonidan o‘tkaziladi.

3. Universitetning oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga qabul jarayonlari ochiqlik, shaffoflik va adolatlilik tamoyillari asosida tashkil etiladi. Bunda barcha jarayonlarda universitetning imkoniyatlaridan kelib chiqib zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilishi mumkin.

4. Kirish imtihoni va suhbatni o‘tkazish joyi va muddatlari Kengash tomonidan belgilanadi.

5. Qabul komissiyasi “**daraja.ilmiy.uz**” sayti orqali hujjatlari qabul qilingan talabgorlarni kirish imtihoni va suhbat to‘g‘risida xabardor qiladi. Bunda imtihon o‘tkazish joyi, vaqti va boshqa ushbu jarayonga oid qo‘shimcha ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

6. Talabgor kirish imtihoni yoki suhbatga kirish uchun fuqarolik pasporti yoki ID-kartasini taqdim etishi lozim.

7. Talabgor kirish imtihoni va suhbat natijasiga ko‘ra, kamida **50 foiz** ko‘rsatkichga ega bo‘lgan taqdirda oliy ta’limdan keyingi ta’lim ixtisosliklariga qabul qilinishi mumkin.

8. Tayanch doktorantura, doktorantura va stajyor-tadqiqotchilikka kirish imtihonlari va suhbat umumiy natijasi talabgorlarning to‘plagan ballari asosida aniqlanadi hamda qabul kvotalariga muvofiq, ballar ketma-ketligiga rioya qilingan holda, eng yuqori ball to‘plagan talabgorlar kirish imtihonlari va suhbatdan

muvaffaqiyatli o'tgan deb hisoblanadi.

9. Uzrli sabablarga ko'ra suhbatda ishtirok etolmaydigan talabgorlarga Qabul komissiyasi ruxsati bilan doktorantura, stajyor-tadqiqotchi va mustaqil izlanuvchilikka suhbat masofaviy shaklda tashkil etilishi mumkin. Bunda, talabgor tomonidan suhbat belgilangan kundan **3 kun** avval ma'lum qilinishi lozim.

10. Masofaviy suhbatlarni o'tkazish reja-jadvali Kengash tomonidan alohida tasdiqlanadi.

II. Tayanch doktoranturaga kirish imtihonlarini tashkil etish va o'tkazish

11. Universitetning tayanch doktoranturasiga kirish imtihonlari test sinovlari shaklida o'tkaziladi. Bunda, Qabul komissiyasi qarori bilan qo'shimcha og'zaki imtihon tashkil etilishi mumkin.

12. Nogironligi bo'lgan shaxslar (I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar) uchun kirish imtihoni og'zaki yoki boshqa muqobil shakllarda o'tkazilishi mumkin.

13. Test savollari ixtisosliklar kesimida tegishli fanlardan o'zbek, rus yoki qoraqalpoq tillarida Qabul komissiyasi tomonidan tuziladi va Kengash tomonidan tasdiqlanadi.

14. Test sinovlari **20 ta** savoldan iborat bo'lib, har bir savolga to'g'ri javob **5 ball** bilan baholanadi. Test sinovlari uchun jami **60 daqiqa** vaqt ajratiladi.

15. Test sinovlari qoida tariqasida kompyuter texnik vositalarini qo'llagan holda o'tkaziladi. Kirish imtihonlari jarayoni videokuzatuv orqali yozib olinadi va onlayn translyatsiya qilinadi.

16. Test savollari yopiq xarakterga ega ma'lumot hisoblanadi. Ularning maxfiyligi Qabul komissiyasi tomonidan ta'minlanadi.

17. Test jarayonida har 10 nafar talabgorga kamida bitta guruh nazoratchisi ajratiladi. Guruh nazoratchilari ro'yxati Kengash tomonidan tasdiqlanadi.

18. Test jarayonida barcha talabgorlar o'z joylarini egallab bo'lganlaridan so'ng, Universitet mas'ul xodimi (qabul komissiyasi a'zosi va nazoratchi) tomonidan imtihon jarayoniga tegishli ko'rsatmalar o'qib beriladi.

19. Talabgorlar tomonidan test jarayonida savollarining mazmuni, shu jumladan, to'g'ri javob olish bo'yicha nazoratchilarga murojaat qilish taqiqlanadi.

20. Test jarayoni davomida talabgorlar tomonidan ushbu Tartibning ilovasida qayd etilgan barcha turdagi materiallar va qurilmalardan foydalanish hamda harakatlarni amalga oshirish taqiqlanadi. Bunda talabgor tomonidan ushbu qoida va tartib buzilganda imtihonga biriktirilgan mas'ul xodim tegishli tartibda dalolatnoma

rasmiylashtiradi va talabgorni imtihondan chetlashtiradi.

21. Test savollariga belgilangan muddatdan ilgari javob berib, test jarayonlarini tark etmoqchi bo'lgan talabgorlar qo'llarini ko'targan holda nazoratchi yoniga kelishini kutishi lozim. Nazoratchilar tomonidan tegishli ko'rsatma berilgunga qadar talabgorlar o'rnini tark etishi taqiqlanadi.

22. Talabgor shaxsiy ehtiyojlari asosida test o'tkazilayotgan zalni ma'lum bir muddatda tark etmoqchi bo'lgan taqdirda nazoratchilardan birining hamrohligida zalni tark etishi mumkin. Ushbu talabgorga qo'shimcha vaqt taqdim etilmaydi.

23. Test sinovlari natijalari har bir talabgorning ma'lumotlari va ularning ballari ko'rsatilgan holda imtihon dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Mazkur dalolatnoma talabgorlar, nazoratchilar va mas'ul xodim tomonidan imzolanadi.

24. Har bir ixtisoslik bo'yicha o'tkazilgan imtihon natijalari (dalolatnomalari) imtihonlar (apellyatsiya jarayonlari) yakunlanganidan so'ng Qabul komissiyasi tomonidan umumlashtiriladi va Kengashga tasdiqlash uchun kiritiladi.

III. Doktorantura va stajyor-tadqiqotchilikka qabul qilish bo'yicha suhbat jarayonlarini tashkil etish

25. Doktorantura va stajyor-tadqiqotchilikka o'qish uchun kirayotgan talabgorlar Kengash tomonidan tashkil etiladigan suhbat komissiyasi tomonidan tegishli ixtisosliklar bo'yicha suhbatdan o'tadilar.

26. Har bir talabgor bilan suhbat **20 daqiqagacha** davom etadi. Bunda, imtihon jarayonida talabgorlardan hozirgacha amalga oshirgan ilmiy-tadqiqot ishlari va kelajakdagi ilmiy-tadqiqot rejalari, ilmiy dunyoqarashi, tadqiqot yo'nalishiga tayyorgarligi va mustaqil ilmiy fikrlash qobiliyati aniqlanadi.

27. Suhbatni tashkil etish va o'tkazish uchun Kengash tomonidan ixtisosliklar kesimida **kamida uch nafardan** iborat suhbat komissiyasi tuziladi. Bunda suhbat jarayonlari videokuzatuv orqali yozib olinadi.

28. Suhbat komissiyasi har bir talabgor bilan individual tartibda suhbat o'tkazib, belgilangan mezonlar asosida baholashni amalga oshiradi. Baholash mezonlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

talabgorning tanlangan yo'nalishi bo'yicha nazariy tayyorgarlik darajasi – **25 ballgacha**;

tadqiqot metodologiyasini bilishi – **25 ballgacha**;

mustaqil va mantiqiy fikr yuritish qobiliyati – **25 ballgacha**;

tanlangan ixtisosligi va ilmiy ishi bo'yicha kelgusida ilmiy faoliyatni rivojlantirishga tayyorligi – **25 ballgacha**.

29. Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan har bir talabgor bo'yicha suhbatni **baholash varag'i** to'ldiriladi. Barcha komissiya a'zolari yakuniy ballarining umumiy o'rtacha qiymati suhbatni o'tkazish dalolatnomasida aks ettiriladi va barcha komissiya a'zolari tomonidan imzolanadi.

30. Suhbat natijalari talabgorlarga suhbat jarayonlari yakunlanganidan so'ng **1 ish kuni** muddatda e'lon qilinadi.

31. Suhbat natijalari va suhbat bo'yicha berilgan apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish natijalari Kengashga tasdiqlash uchun kiritiladi.

32. Suhbat jarayonida talabgorning qo'shimcha materiallardan, elektron qurilmalardan, internet resurslaridan yoki suhbat mazmuniga ta'sir etuvchi har qanday yordam vositalaridan foydalanishi qat'iy taqiqlanadi.

33. Suhbat jarayonida belgilangan talablar buzilgan hollarda, shu jumladan, talabgorning suhbat komissiyasiga bosim o'tkazishga, ularning ishiga aralashishga, yolg'on ma'lumot taqdim etishga urinishi aniqlangan taqdirda, ushbu holat tegishli tartibda dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va talabgor suhbatdan chetlatiladi.

IV. Mustaqil izlanuvchilikka qabul qilish bo'yicha suhbat jarayonlarini tashkil etish

34. Mustaqil izlanuvchilikka o'qish uchun kirayotgan talabgorlar Kengash huzurida tashkil etiladigan suhbat komissiyasi tomonidan tegishli ixtisosliklar bo'yicha suhbatdan o'tadilar.

35. Har bir talabgor bilan suhbat **20 daqiqagacha** davom etadi. Bunda, imtihon jarayonida talabgorlardan hozirgacha amalga oshirgan ilmiy-tadqiqot ishlari va kelajakdagi ilmiy-tadqiqot rejalari, ilmiy dunyoqarashi, tadqiqot yo'nalishiga tayyorgarligi va mustaqil ilmiy fikrlash qobiliyati aniqlanadi.

36. Suhbatni tashkil etish va o'tkazish uchun Kengash tomonidan ixtisosliklar kesimida **kamida uch nafardan** iborat suhbat komissiyasi tuziladi. Bunda suhbat jarayonlari videokuzatuv orqali yozib olinadi.

37. Suhbat komissiyasi har bir talabgor bilan individual tartibda suhbat o'tkazib, belgilangan mezonlar asosida baholashni amalga oshiradi. Baholash mezonlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

talabgorning tanlangan yo'nalish bo'yicha nazariy tayyorgarlik darajasi – **25 ballgacha**;

tadqiqot metodologiyasini bilishi – **25 ballgacha**;

mustaqil va mantiqiy fikr yuritish qobiliyati – **25 ballgacha**;

tanlangan ixtisosligi va ilmiy ishi bo'yicha kelgusida ilmiy faoliyatni

rivojlantirishga tayyorligi – **25 ballgacha**.

38. Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan har bir talabgor bo'yicha suhbatni **baholash varag'i** to'ldiriladi. Barcha komissiya a'zolari yakuniy ballarining umumiy o'rtacha qiymati suhbatni o'tkazish dalolatnomasida aks ettiriladi va barcha komissiya a'zolari tomonidan imzolanadi.

39. Suhbat natijalari talabgorlarga suhbat jarayonlari yakunlanganidan so'ng **1 ish kuni** muddatda e'lon qilinadi.

40. Suhbat natijalari va suhbat bo'yicha berilgan apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish natijalari Kengashga tasdiqlash uchun kiritiladi.

41. Suhbat jarayonida talabgorning qo'shimcha materiallardan, elektron qurilmalardan, internet resurslaridan yoki suhbat mazmuniga ta'sir etuvchi har qanday yordam vositalaridan foydalanishi qat'iy taqiqlanadi.

42. Suhbat jarayonida belgilangan talablar buzilgan hollarda, shu jumladan, talabgorning suhbat komissiyasiga bosim o'tkazishga, ularning ishiga aralashishga, yolg'on ma'lumot taqdim etishga urinishi aniqlangan taqdirda, ushbu holat tegishli tartibda dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va talabgor suhbatdan chetlatiladi.

V. Apellatsiya shikoyati

43. Talabgor kirish imtihoni va suhbat natijalari yuzasidan kirish imtihoni (suhbat) natijalari e'lon qilingandan so'ng **1 ish kuni** muddatda Qabul komissiyasiga apellatsiya shikoyatini (ariza) yuborishi mumkin. Bunda arizalar admission@newuu.uz elektron pochtasiga yuboriladi.

44. Apellatsiya shikoyati Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi, **2 ish kuni** muddatda ko'rib chiqilib, tegishli qaror bilan rasmiylashtiriladi va o'sha kunning o'zida talabgorga xabar beriladi.

45. Talabgorning shikoyati (arizasi) qanoatlantirilgan taqdirda, kirish imtihoni (suhbat) natijalari qayta ko'rib chiqiladi va unga o'zgartishlar kiritiladi. Qabul komissiyasining ushbu qarori yakuniy hisoblanadi.

VI. Saralash imtihoni natijalarini shakllantirish, e'lon qilish va o'qishga qabul qilish

46. Kirish imtihoni va suhbat natijalari tegishli ravishda qabul komissiyasi va suhbat komissiyasi tomonidan Kengashga tasdiqlash uchun kiritiladi. Kengash qarori bilan tegishli ravishda oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga qabul qilingan talabgorlar, ularning dissertatsiya mavzulari, biriktirilgan ilmiy rahbar va ilmiy konsultantlar ro'yhati tasdiqlanadi.

47. Kengash qaroriga asosan Universitet rektorining doktorantura, tayanch doktorantura, stajyor-tadqiqotchi va mustaqil izlanuvchilikka qabul qilish to'g'risidagi buyrug'i qabul qilinadi.

VI. Yakunlovchi qoidalar

48. Mazkur Nizomda nazarda tutilmagan normalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

49. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Universitet rektorining tegishli buyrug'i asosida kiritiladi.

50. Mazkur Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

51. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

“Yangi O‘zbekiston” universitetida 2026-yil
uchun doktorantura, tayanch doktorantura,
stajyor-tadqiqotchi va mustaqil izlanuvchilikka
qabul qilish tartibi to‘g‘risida nizomiga

ILOVA

Kirish imtihonida taqiqlangan materiallar, qurilmalar va harakatlar

TAVSIFI

Materiallar tavsifi	
1.	Barcha turdagi formulalar kitobi
2.	Talabgorning shaxsiy qayd daftari
3.	Imtihon savollari va fanlariga doir barcha turdagi yozma materiallar
4.	Barcha turdagi shpargalkalar
5.	Lug‘atlar
6.	Barcha turdagi yozma materiallar (daftar, kitob va h.k.)
Qurilmalar tavsifi	
1.	Barcha turdagi mobil aloqa qurilmalari
2.	Barcha turdagi aqilli soatlar (“Smart watch”)
3.	Barcha turdagi ovoz yoki videotasvirni xotirasiga saqlovchi vositalar
4.	Barcha turdagi hisoblash amallarini bajaruvchi qurilmalar (kalkulyator)
5.	Barcha turdagi masofaviy aloqa vositalari (quloqchinlar va h.k.)
6.	Barcha turdagi elektron ko‘zoynaklar
Harakatlar tavsifi	
1.	Imtihon o‘tkazilishi belgilangan manzilga ko‘rsatilgan vaqtdan kech qolib kelish
2.	Taqiqlangan material va qurilmalarni bino yoki maydonga olib kirish va foydalanish
3.	Imtihon jarayonida boshqa talabgor bilan suhbatlashish va savollar yuzasidan fikr almashish
4.	Imtihon jarayonida boshqa talabgorlarni bezovta qilish va turli harakatlar bilan ishoralar orqali munosabatga kirishish

5.	Imtihon boshlanishidan oldin, imtihon jarayonida va imtihon yakunlangandan so'ng jamoat tartibi qoidalariga zid ravishda harakatlar sodir etish
6.	Imtihon savol varaqalari yoki imtihonda foyadalanilgan materiallarni o'zboshimchalik bilan olib ketish